

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

2-son (6-jild)

2026

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 2 (6) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2026

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Kurbanov Eldar Ermamatovich, Qormishov Mirjalol Jumamurod o'g'li</i> O'ZBEKISTONDA MILLATLARARO TOTUVLIKNI TA'MINLASHDA MILLIY MADANIY MARKAZLARining INSTITUTSIONAL ROLI VA VAZIFASI (Sirdaryo viloyati markazlari misolida)	11-15
<i>Djurayev Ikrom Nematovich</i> SOPOLLI-KO'ZALI ARXEOLGIK QATLAMLARIDA SHIMOLIY DASHT QABILALARINING IZLARI	16-19
<i>Акбарова Камила Шухрат кизи</i> МЕЖДУ СЕКУЛЯРИЗАЦИЙ И МОДЕРНИЗАЦИЕЙ: СОВЕТСКАЯ ПОЛИТИКА В СФЕРЕ РЕЛИГИИ В УЗБЕКИСТАНЕ	20-26
<i>Olimov Islombek Ulug'bek o'g'li</i> SUV TA'MINOTI TIZIMINI RAQAMLASHTIRISH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR.....	27-31
<i>Sitorabonu Bobojonova</i> BUXORODA DASTLABKI MUZEYNING TASHKIL TOPISHI.....	32-36
<i>O'ralov Orzubek</i> GEOGRAFIK KASHFIYOTLARGA QADAR POLINEZIYA XALQLARINING RIVOJLANISHI VA DAVLATCHILIK INSTITUTLARINING SHAKLLANISHI TARIXI.....	37-45
<i>Qahhorov Shohjaxon Shodiyor o'g'li</i> ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSINING TARIXIY VA MA'NAVIY TAHLILI.....	46-50

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Madartov Bahrom</i> TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA O'ZARO MUNOSABATLARNI HISOBGA OLISH ASOSIDA STRATEGIK REJALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH	51-55
<i>Xudayberdiyev Otabek Absalomovich</i> XALQARO SAVDO MUNOSABATLARIDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA TA'MINOT ZANJIRI VA LOGISTIKA KONTROLLINGINING ROLI	56-64
<i>Ismailova Shaxnoza Uktamovna</i> O'ZBEKISTONDA INFLYATSION BOSIM OMILLARI VA ULARNING ISTE'MOL NARXLARI INDEKSIDA NAMOYON BO'LISHI.....	65-75
<i>Usmonov Maxsud Tulqin o'g'li</i> XIZMAT KO'RSATUVCHI SUBYEKTLARNING RAQOBATBARDOSHLIGINI BELGILOVCHI OMILLAR TIZIMINI ANIQLASH VA XIZMAT SIFATI QIYMAT TAKLIFI MIJOZ TAJRIBASI BREND KAPITALI HAMDA TEZKORLIK INDIKATORLARI ASOSIDA BAHOLASH	76-87

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Alimatova Nargis Abduxalilovna</i> INSON ONGINING TABIATINI O'RGANISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI	88-93
--	-------

<i>Utegenova Jamila Djolmurzayevna</i> O'ZBEKISTONDA BIOETIKANING SHAKLLANISHI VA FALSAFIY ASOSLARI	94-97
<i>Mamatqulov Rashid Pazilbekovich</i> JAMIYAT YUKSALISHIDA IJTIMOY NAZORATNING ROLI.....	98-102
<i>Shadimetov Mahmudjon Negmatjanovich</i> RUHIY KAMOLOT TUSHUNCHASINING FALSAFIY MAZMUNI VA TARIXIY ILDIZLARI .	103-108
<i>Ochilov Jamshid Abdurashidovich</i> KOSMOGEN, TEXNOGEN, ANTROPOGEN SIVILIZATSIYALAR MOHIYATINING ONTOLOGIK TALQINI	109-117
<i>Beshimov Xamidjon Sayidovich</i> KASABA UYUSHMALARI TIZIMIDA INSON QADRINI YUKSALTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	118-126
<i>Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna</i> ABU RAYHON BERUNIY ASARLARIDA FANLARNING INSON HAYOTIDAGI O'RNI MASALALARI	127-130
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Axmedov Oybek Saporbayevich</i> INGLIZ TILIDAGI SOLIQ-BOJXONA TERMINOLOGIK BIRLIKLARINI O'ZBEK TILIGA TARJIMA QILISHNING STILISTIK MUAMMOLARI.....	131-139
<i>Babadjanova Nazokat</i> OGAHIYNING SO'Z VA NUTQ MASALALARIGA OID QARASHLARINING MA'RIFIY MANBALARI	140-148
<i>Xo'jamqulov Anvar Jozilovich, Tog'ayeva Shoxnoza Elmurod qizi</i> ADABIYOTIDA "ABSURD" TUSHUNCHASI	149-153
<i>Abdullayeva Rahima Raimqul qizi</i> MEDIA YORDAMIDA IMIDJNING SHAKLLANISHI VA IJTIMOY FIKR	154-161
<i>Fozilov Arabjon Nozimjon o'g'li</i> CHET TILLARINI O'RGANISHDA SO'Z YODLASHNING AHAMIYATI	162-165
<i>Sarvinov Abdiraxmonova Davron qizi, Eshtuhtarova Bibigul Bektoshevna</i> THE SIGNIFICANCE OF STUDYING GENDER REPRESENTATION IN IDIOMS AND PHRASEOLOGICAL UNITS.....	166-171
<i>Raxmonova Dildora Mirzakarimovna</i> TAVALLO IJODIDA POETIK OBRAZ YANGILANISHINING IJTIMOY-TARIXIY VA ADABIY- ESTETIK OMILLARI.....	172-185
<i>Кодирова Зарина Баходировна</i> ХУДОЖЕСТВЕННОЕ СВОЕОБРАЗИЕ ДЕТСКОЙ ПРОЗЫ ДЭВИДА УОЛЛЬЯМСА: «DEMON DENTIST», «THE FING», «GANGSTA GRANNY».....	186-191
<i>Ismatilloev Jobir</i> "FIRDAVS UL-IQBOL"DAGI QASIDALARDA HUKMDORLAR MADHI	192-197
<i>Bozorova Nasiba</i> O'LMAS UMARBEOVNING "YOZ YOMG'IRI" QISSASIDA JINOYATNI O'RGANISHDA RETROSPEKSIYA USULI	198-203

<i>Ганиева Зухра Муратбаевна</i> ВЕРБАЛИЗАЦИЯ КОНЦЕПТА «СМЕРТЬ» В РУССКОМ ЯЗЫКЕ: КОГНИТИВНО-СЕМАНТИЧЕСКИЙ АСПЕКТ	204-212
--	---------

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich, Ro'ziboyev Asilbek</i> SUN'IY INTELLEKT QARORLARIDA ADOLATSIZLIK MUAMMOSI VA UNI BARTARAF ETISH YO'LLARI.....	213-218
<i>Bazarova Dildora Baxodirovna</i> ODIL SUDLOVNI TA'MINLASHDA "RAQAMLI SUD"	219-226
<i>Бабаев Джасхонгир Исмаилбекович</i> КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ГРАЖДАНСКО-ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ДОГОВОРА ПИТЬЕВОГО ВОДОСНАБЖЕНИЯ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН: ПУТИ МОДЕРНИЗАЦИИ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА	227-229
<i>Азходжаева Роза Алтыновна</i> РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ СИСТЕМЫ ЗДРАВООХРАНЕНИЯ.....	230-235
<i>Абдужампоров Шахбоз Музаффар ўғли</i> ЭЛЕКТРОННЫЕ ДОКАЗАТЕЛЬСТВА В ДЕЛАХ О КИБЕРПРЕСТУПЛЕНИЯХ: ПРОБЛЕМЫ СБОРА, ФИКСАЦИИ И ПРАВОВОЙ ОЦЕНКИ	236-246
<i>Alijanov Ilhomjon Erkinjon o'g'li</i> PROKURATURA ORGANLARIGA QABUL QILISHDA NOMZODLARGA QO'YILGAN TALABLAR, XIZMATGA QABUL QILISH VA YOSH MUTAXASSISLAR BILAN ISHLASHGA DOIR FAOLIYATNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI	247-253
<i>Sarsenbaeva Aynura Tenelbay qizi, Tanirbergenov Sultanbek Bazarbaevich</i> FUQAROLARNING KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ VA ERKINLIKLARIGA QARSHI JINOYATLAR HUQUQIY MOHIYATI.....	254-258
<i>Qudratillayev Jaxongir Zokirjon o'g'li</i> INTERNETDAN FOYDALANISH HUQUQINING TARKIBIY QISMI	259-265
<i>Usmonaliyev Muslimbek Qurvonaliyevich</i> SPORTCHILARNI VAQTINCHALIK IJARAGA Olish SHARTNOMASINING SPORT HUQUQIDAGI O'RNI	266-272
<i>Mamadaliyev Boburjon Bahodirjon o'g'li</i> MAHALLIY BUDJETNI TARTIBGA SOLISHDA MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI IJRO ORGANLARINING VAZIFALARINING O'ZIGA XOS JIHATLARI.....	273-278
<i>Umarova Xolisxon Nomoz qizi</i> KORPORATSIYA DIREKTORLARINING FUNKSIONAL VAZIFALARINI AMALGA OSHIRISH BILAN BOG'LIQ JAVOBGARLIGI CHEGARASI	279-286
<i>Yaqubova Guli Qosimboy qizi</i> VOYAGA YETMAGANLAR BILAN BOG'LIQ ISHLARNI FUQAROLIK SUDLARIDA KO'RISHDA PROKURORNING ISHTIROKI TUSHUNCHASI VA UNING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI	287-294
<i>Ibrohimov Azimjon</i> XO'JALIK JAMIYATLARI BOSHQARUV ORGANLARI TIZIMIDA IJRO ORGANI: ROSSIYA FEDERATSIYASI MISOLIDA	295-301

<i>Choriyeva Xupshidabonu Xuppam qizi</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING "VASIYLIK VA HOMIYLIK TO'G'RISIDA"GI QONUNINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI.....	302-310
<i>Saidazimov Yusuf Sodiq o'g'li</i> MA'MURIY AKT. MA'MURIY AKTNING MAZMUN-MOHİYATI. GERMANIYA TAJRIBASI.....	311-316
<i>Tursunov Ilxomjon Salimovich</i> MUQADDAM SUDLANGAN SHAXSLAR TOMONIDAN SODIR ETILISHI MUMKIN BULGAN JINOIY HARAKATLARNI OLDINI OLISH VA MAXSUS PROFILAKTIKANI TAKOMILLASHTIRISH	317-321
<i>Xojanazarov Otabek Saydazimovich</i> OZODLIK DAN MAHRUM QILISH BILAN BOG'LIQ BO'LMAGAN JAZOLAR IJROSI USTIDAN PROKUROR NAZORATI: MILLIY VA XALQARO TAJRIBA.....	322-329
<i>Raxmedov Xurshid Ashrapxodjayevich</i> JINOYAT ISHINI QO'ZG'ATISH INSTITUTINING HUQUQIY TABIATI VA PROTSESSUAL AHAMIYATI	330-339
<i>Mansurova Xulkar Nabiyevna</i> FUQAROLIK PROTSESSINING TEZKORLIGINI TA'MINLASHDA SIRTDAN HAL QILUV QARORI CHIQRISHNING AHAMIYATI	340-349
<i>Begimova Nasiba Xudayberdievna</i> FARZANDLIKKA OLISH INSTITUTINING TADRIJIY RIVOJLANISHI	350-358
<i>Yo'ldoshbekov Anvar</i> NAQDSIZ HISOB-KITOB LAR VA RAQAMLI NAZORAT TIZIMLARINING HUQUQIY AHAMIYATI	359-367
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna</i> EVRISTIK TA'LIM NAZARIYASIDA TA'LIM OLUVCHINING MUSTAQIL FIKRLASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI	368-372
<i>Shukurov Mirjalol Norpulatovich</i> YAKKAKURASHCHILARNI TEXNIK USULLARIGA O'RGATISHDA KLAS TER USLUBIDAN FOYDALAN HOLDA TAKOMILLASHTIRISH	373-377
<i>Tilyabayev Kamil Zaitjonovich</i> O'ZBEK TILINING O'RGANILISHI VA DEKOLONIZATSIYASIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR: (DE)KOLONIAL HIS-TUYG'ULAR, MILLAT VA O'Z-O'ZINI ANGLASH	378-383
<i>Xudoyberdiyev G'iyosiddin Baxtiyor o'g'li</i> SHARQ MUTAFAKKIRLARNING FALSAFIY QARASHLARI ASOSIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA VALEOLOGIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING MUHIM PEDAGOGIK OMILI SIFATIDA.....	384-388
<i>Xo'jamqulov Rasulbek Qurbon o'g'li</i> KOMPYUTER GRAFIKASI TEXNOLOGIYALARINI LOYIHA ASOSIDA O'QITISHGA INTEGRATSIYALASHNING PEDAGOGIK SAMARADORLIGI	389-393
<i>Badalov Ulug'bek Xikmatovich</i> GEOGRAFIYA FANI DARSLARIDA ONLAYN GIS TIZIMLARIDAN FOYDALANISH.....	394-398

<i>Anvarjonova Nodirakhon Nasimbek qizi</i> IS EXPLICIT GRAMMAR INSTRUCTION STILL PEDAGOGICALLY JUSTIFIED? A CRITICAL RECONSIDERATION OF ITS ROLE IN CONTEMPORARY ENGLISH LANGUAGE EDUCATION.....	399-406
<i>Imomov Fozil Shakarbek o'g'li</i> TEMPERAMENT NAZARIYASI VA INDIVIDUAL PSIXOLOGIK XUSUSIYATLAR ASOSIDA GRAFIK FAOLIYATNI TASHKIL ETISH: PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA VA SAN'AT TERAPIYASI KONTEKSTIDA.....	407-412
<i>Курбанбаев Джавод Аминбаевич</i> КОГНИТИВНЫЕ И ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫЕ ОСНОВЫ ЛЕКСИЧЕСКИХ ГЛОССАРИЕВ В ЯЗЫКОВОМ ОБРАЗОВАНИИ	413-417
<i>Eshnazarova Farida Jo'raqulovna</i> JAMOADA LIDERLIK VA UNING SIFATLARI (SPORT JAMOALARI MISOLIDA).....	418-421
<i>Yuldasheva Muhayyo Alimbaevna</i> AVTOMOBILLARDA TASHISH VA HARAKAT XAVFSIZLIGINI TASHKIL ETISH FANINI O'QITISHDA ZAMONAVIY TA'LIM VOSITALARINING O'RNI.....	422-429
<i>Umarov Komil, Sobirov Orif, Sultanov Rustam, Egamberdiyev Abdullo</i> YUQORI MALAKALI GANDBOLCHILAR MASHG'ULOTLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	430-435
<i>Doniyorova Gulnoza Anvar qizi, Kurbanova Gulnoz Negmatovna</i> INTERAKTIV VOSITALAR VA AXBOROT RESURSLARIDAN FOYDALANISH ORQALI KASBIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI.....	436-441
<i>Nafasov Arslon Komilovich</i> PEDAGOGIK TA'LIM KLASTERI YO'NALISHIDA TARIX O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH SAMARADORLIGI.....	442-447
<i>Pulatova Muxabbat Egamberdiyevna, Qalandarova Sevinch Aqiljon qizi</i> BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING KOMMUNIKATIV SALOHIYATINI SHAKLLANTIRISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH	448-453

Received: 15 January 2026
Accepted: 2 February 2026
Published: 14 February 2026

Article / Original Paper

PROSECUTORIAL OVERSIGHT OF NON-CUSTODIAL SENTENCES: NATIONAL AND INTERNATIONAL EXPERIENCE

Xojanazarov Otabek Saydazimovich,

Master's student at the law enforcement

Academy of the Republic of Uzbekistan

E-mail: nazarotabek@gmail.com

Abstract. The article analyzes the national and international legal foundations of prosecutorial supervision over the activities of institutions and bodies responsible for the execution of criminal penalties, with particular emphasis on probation services. It substantiates that the essence of the supervision institution lies in the objective assessment of legality and public order during the execution of sentences, the prevention and elimination of violations, as well as the protection of the rights and freedoms of convicted persons. The paper examines the principles of external and internal monitoring, independent oversight, humane treatment, rehabilitation, and reintegration as enshrined in the UN Nelson Mandela Rules, the Tokyo Rules, the Bangkok Rules, and the revised European Prison Rules. In addition, the subject matter, powers, and organizational mechanisms of prosecutorial supervision established in national legislation are comprehensively addressed.

Keywords: prosecutorial supervision, execution of sentences, penal institutions, probation service, non-custodial sanctions, human rights, Tokyo Rules, Nelson Mandela Rules, Bangkok Rules, European Prison Rules, rehabilitation and reintegration.

OZODLIKDAN MAHRUM QILISH BILAN BOG'LIQ BO'LMAGAN JAZOLAR IJROSI USTIDAN PROKUROR NAZORATI: MILLIY VA XALQARO TAJRIBA

Xojanazarov Otabek Saydazimovich,

O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza

qilish akademiyasi magistratura tinglovchisi

Annotatsiya. Maqolada jazolarni ijro etuvchi muassasalar va organlar, xususan probatsiya xizmati faoliyati ustidan prokuror nazoratining milliy hamda xalqaro huquqiy asoslari tahlil qilinadi. Nazorat institutining mohiyati — ijro jarayonida qonuniylik va huquq-tartibot holatini obyektiv baholash, huquqbuzarliklarning oldini olish va bartaraf etish, shuningdek, mahkumlarning huquq va erkinliklariga rioya etilishini kafolatlashdan iborat ekani asoslanadi. Maqolada BMTning "Nelson Mandela qoidolari", "Tokio qoidolari", "Bangkok qoidolari", shuningdek, yangilangan Yevropa penitensiar qoidalarida belgilangan tashqi va ichki monitoring, mustaqil tekshiruv, insonparvar munosabat, reabilitatsiya va reintegratsiya tamoyillari yoritiladi. Shu bilan birga, qonunchilikda prokuror nazoratining predmeti, vakolatlari va tashkiliy mexanizmi ochib beriladi.

Kalit so'zlar: prokuror nazorati, jazolar ijrosi, jazoni ijro etuvchi muassasalar, probatsiya xizmati, ozodlikdan mahrum qilishga muqobil jazolar, inson huquqlari, "Tokio qoidolari", "Nelson Mandela qoidolari", "Bangkok qoidolari", Yevropa penitensiar qoidolari, reabilitatsiya va reintegratsiya.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I2Y2026N46>

Kirish. Jazolarni ijro etuvchi muassasalar va organlar faoliyati ustidan nazorat instituti jazoni o'tayotgan shaxslarning huquq va erkinliklarini ta'minlash bo'yicha eng muhim funksiyani bajaradi hamda jinoiy jazolarni ijro etish jarayonida qonuniylikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Ozodlikdan mahrum qilish qilish bilan bog'liq bo'lmagan jinoyatlar bilan muomala qilishga oid xalqaro hujjatlar, xususan Birlashgan Millatlar Tashkilotining (keyingi o'rinlarda BMT) mahkumlar bilan muomala qilish bo'yicha minimal standart qoidalari (Nelson Mandela qoidalari), shuningdek yangilangan Yevropa penitensiar qoidalari ham jazolarni ijro etuvchi muassasalar va organlar faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirish zarurligini alohida ta'kidlaydi.

Mazkur nazoratning mohiyati va vazifasi, birinchidan, jazolarni ijro etuvchi muassasalar va organlar tomonidan o'z funksional faoliyatining qanday amalga oshirilayotganini kuzatishdan iborat; ikkinchidan, ushbu muassasa va organlarda qonuniylik va huquq-tartibotning holati to'g'risida obyektiv va ishonchli axborotni olishni nazarda tutadi; uchinchidan, qonuniylik va intizom buzilishlarining oldini olish va ularni bartaraf etish bo'yicha choralar ko'rishni qamrab oladi; to'rtinchidan, huquqbuzarliklar va jinoyatlar sodir etilishiga sabab bo'layotgan omillar hamda shart-sharoitlarni aniqlashni maqsad qiladi; beshinchidan esa qonuniylik va intizomni buzgan aybdor shaxslarni javobgarlikka tortish choralari ko'rishdan iboratdir [1].

Adabiyotlar sharhi. Ozodlikdan mahrum qilishga muqobil bo'lgan jazo choralari qo'llashni qo'llab-quvvatlaydigan yoki shu yo'nalishda da'vat qiladigan bir qator xalqaro tashkilotlarni keltirish mumkin. Jumladan, **BMT** — o'z ustavi va tamoyillari doirasida inson huquqlari hamda mahkumlarning qadr-qimmatini himoya qilishga da'vat etadi. BMT jamoat ta'sirining muqobil choralari kabi jazolarning alternativ shakllariga alohida e'tibor qaratadi;

Yevropa Kengashi — shartli ravishda ozod qilish va majburiy mehnatning alternativ shakllari kabi qamoq jazosiga muqobil choralar bo'yicha standartlar va qo'llanmalar ishlab chiqadi hamda tavsiya qiladi. Bu mahkumlarga erkinlikni saqlab qolgan holda jazoni o'tash imkonini beradi;

Xalqaro jinoyat huquqi assotsiatsiyasi — jinoyat huquqi sohasidagi olimlar va amaliyotchilarni birlashtiruvchi xalqaro tashkilot bo'lib, qamoq jazosiga muqobil choralarni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlaydi hamda alternativ adolat shakllarini tadqiq qiladi;

International Commission on Engineering and Alternative Education (ICEEA) — 1970-yilda tashkil etilgan bo'lib, an'anaviy turma o'rniga mahkumlar ta'lim olishi, kasb-hunarga o'rganishi va psixologik yordam olishi mumkin bo'lgan tiklanish va qayta tarbiyalash markazlari kabi alternativ muassasalarni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlaydi;

Human Rights Watch — mahkumlarning huquqlari va ularning ahvoriga alohida e'tibor qaratadi, qamoq jazosidan ortiqcha foydalanish va inson huquqlarining buzilishini oldini olish maqsadida jazoning alternativ shakllarini rivojlantirish tarafdori.

Ozodlikdan mahrum qilishga muqobil bo'lgan jazo choralari qo'llashni qo'llab-quvvatlaydigan xalqaro hujjat sifatida 1990-yil 14-dekabr BMT Bosh Assambleyasining 45-sessiyasida qabul qilingan ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan choralar to'g'risidagi **Minimal standart qoidalar** ("Tokio qoidalari") e'tirof etiladi.

"Tokio qoidalari" qamoq jazosiga bog'liq bo'lmagan jazo choralari ishlab chiqish va qo'llash uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu qoidalar qamoq jazosiga bo'lgan qaramlikni kamaytirish, shuningdek, probatsiya kabi samarali muqobil choralarni rivojlantirishga qaratilgan.

Probatsiya qamoq jazosidan alohida institut sifatida qaralishi, huquqbuzarni rehabilitatsiya qilish va uni jamiyatga qaytarishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Probatsiyani qo'llash har bir mahkumning individual bahosiga asoslanishi kerak.

Jazo chorasi jinoyat og'irligiga mutanosib bo'lishi muhim hisoblanadi. Probatsiya oshkora va shaffof tarzda amalga oshirilishi, uning bajarilishi ustidan nazorat qilish imkoniyati ta'minlanishi lozim. "Tokio qoidalar" inson huquqlarini ta'minlash va ijtimoiy rehabilitatsiyaga alohida e'tibor qaratgan holda, samarali probatsiya tizimlarini shakllantirish uchun mustahkam xalqaro-huquqiy asos yaratib berdi.

Mazkur xalqaro hujjatning 8.2-qoidasida sud tomonidan tayinlanishi mumkin bo'lgan qamoq jazosiga muqobil jazo turlari sanab o'tilgan.

Sud organlari jinoyat ishlari bo'yicha quyidagi jazo turlarini qo'llashi mumkin:

- a) og'zaki jazo choralari, xususan tanbeh, ogohlantirish;
- b) shartli ravishda ozod qilish (parol);
- c) fuqarolik huquqlarini cheklash;
- d) iqtisodiy sanksiyalar, jumladan bir martalik jarimalar, kunlik (differensial) jarimalar;
- e) mulkni musodara qilish yoki muayyan mol-mulkka nisbatan mulkiy huquqlardan mahrum qilish;
- f) mulkni jabrlanuvchiga qaytarish yoki yetkazilgan zararni qoplash to'g'risida qaror qabul qilish;
- g) shartli hukm tayinlash yoki hukm ijrosini kechiktirish;
- h) shartli ravishda ozod qilish va sud nazorati;
- i) jamoat ishlarini bajarish majburiyatini yuklash;
- j) har kuni majburiy ravishda tuzatish muassasasiga kelib turish sharti bilan joylashtirish;
- k) uy qamog'i.
- k) ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan boshqa har qanday chora;
- l) yuqorida sanab o'tilgan choralarning har qanday kombinatsiyasi [2].

O'zbekiston Respublikasi jinoyat va jinoyat-ijroiya qonunchiligi "Tokio qoidalar"da belgilangan xalqaro standartlarga umumiy jihatdan mos keladi. Ayniqsa, shartli hukm, jamoat ishlari, jarima, ozodlikni cheklash va probatsiya instituti orqali qamoq jazosini kamaytirishga qaratilgan yondashuvlar xalqaro talablarga uyg'un.

Shu bilan birga, kunlik jarima, kombinatsiyalangan alternativ choralar va probatsiya nazoratining huquqiy mexanizmlarini yanada aniqlash kabi yo'nalishlarda qonunchilikni takomillashtirish xalqaro standartlarga to'liq muvofiqlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Bangkok qoidalar. (BMTning ayol mahkumlarga nisbatan munosabat va ularga nisbatan jinoyat adolati choralari qo'llash to'g'risidagi qoidalar). 2010-yil 22-dekabr kuni BMT Bosh Assambleyasining 65-sessiyasida qabul qilingan bu xalqaro hujjat jinoyat adolati tizimida ayollarning huquqlariga alohida e'tibor qaratishga qaratilgan. Ular jumlasiga ozodlikdan mahrum etilgan ayollar hamda probatsiyada bo'lgan ayollar kiradi. Ushbu qoidalar ayollar uchun individual va moslashtirilgan rehabilitatsiya dasturlarini yaratish zarurligini belgilaydi.

Ayol mahkumlar, jumladan probatsiyada bo'lgan ayollar, o'zlarining maxsus ehtiyojlarini inobatga olgan holda (masalan, tibbiy yordam, oila va bolalarni qo'llab-quvvatlash) maxsus rehabilitatsiya sharoitlari bilan ta'minlanishi lozim. Ayollarga psixologik

yordam ko'rsatishning ahamiyati alohida ta'kidlanadi, chunki ularning ko'pchiligi oldin jismoniy yoki ruhiy zo'ravonlikka duch kelgan bo'ladi.

Ayol huquqbuzarlarga nisbatan hurmatli va samarali munosabatni ta'minlaydigan probatsiya xizmatlarini tashkil etish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Bangkok qoidalarini jinoyat-ijro tizimida gender sezgir probatsiya modelini rivojlantirishga xizmat qildi, ayniqsa ayollarni reabilitatsiya qilish va ularni jamiyatga qayta moslashtirish jarayonida muhim ahamiyat kasb etdi [3].

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan taqqoslaganimizda Bangkok qoidalarida belgilangan asosiy gumanistik va insonparvar g'oyalarga umumiy jihatdan mos keladi. Shu bilan birga, *ayollarga nisbatan probatsiyani qo'llashda genderga moslashtirilgan reabilitatsiya dasturlarini ishlab chiqish, psixologik va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kuchaytirish hamda probatsiya xizmatlarining funksional imkoniyatlarini kengaytirish* xalqaro standartlarga to'liq muvofiqlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Yevropa penitensiar qoidalarini. Yevropa Kengashi tomonidan 11.01.2006 yilda qabul qilingan. Yevropa penitensiar qoidalarini mahkumlarga nisbatan insonparvar munosabatni ta'minlash, shuningdek, jazoni ijro etishda muqobil jazo choralari, jumladan probatsiyani qo'llash bo'yicha yagona standartlarni belgilaydi.

Probatsiya qamoq jazosiga muhim muqobil chora sifatida qaraladi hamda mahkumlarning jamiyatga qayta moslashuviga (reintegratsiyasiga) xizmat qiladi.

Xalqaro hujjatda kasbiy probatsiya xizmatlarini tashkil etishning ahamiyati alohida ta'kidlanadi, bunday xizmatlar huquqbuzarlar bilan jazoning barcha bosqichlarida ish olib borishi lozim.

Inson qadr-qimmati va inson huquqlari prinsiplari probatsiyani qo'llash jarayonida qat'iy rioya qilinishi shart.

Yevropa penitensiar qoidalarini qamoq jazosiga muqobil sifatida probatsiya institutini qo'llashni kengaytirishga, shu bilan birga mahkumlarni reabilitatsiya qilish jarayonida ularning huquqlarini ta'minlashga xizmat qildi [4].

Bu jihatdan O'zbekiston Respublikasi jinoyat-ijro qonunchiligi Yevropa penitensiar qoidalarida belgilangan asosiy prinsiplarga umumiy jihatdan mos keladi. Ayni paytda, probatsiya institutini rivojlantirishda uning reabilitatsiyaviy va ijtimoiy yo'nalishlarini kuchaytirish, kasbiy probatsiya xizmatlarini takomillashtirish hamda inson huquqlarini ta'minlash mexanizmlarini yanada aniqlash Yevropa standartlariga to'liq moslashuvga xizmat qiladi.

Ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazolar haqida so'z yuritilganda xalqaro huquqiy standartlarga muvofiq milliy qonunchiligimiz bilan bevosita uyg'unligini ko'ramiz. Shu ma'noda bu soha isloh qilinib, yilga yilga liberallashtirilib kelinayotganligini kuzatish mumkin.

Prezidenti Sh.Mirziyoyevning bundan buyon birinchi marta ozodlikdan mahrum qilingan shaxsga berilgan jazo yengilrog'i bilan almashtirilsa, u manzil-koloniya o'tkazilmasdan, to'g'ridan-to'g'ri probatsiya nazoratiga olinadi [5], deya ta'kidlagani ham bejizga emas.

Tahlil va natijalar. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 03.02.2021-yildagi PF-6155-son Farmoni bilan tasdiqlangan "2017 — 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Yoshlarni

qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturi"ning 30-bandida xalqaro standartlar va insonparvarlik tamoyilini keng joriy etgan holda jazoni ijro etish va probatsiya xizmatini yanada takomillashtirish bo'yicha qator vazifalar belgilangan [6].

Jumladan:

- probatsiya xizmati markaziy va hududiy mahkamalari maqomini oshirish, ushbu xizmatning kadrlar salohiyati va moddiy-texnika bazasini mustahkamlash;
- probatsiya nazoratidagi shaxslarning xulq-atvorini nazorat qilish, ularni ijtimoiy moslashtirish va yangi jinoyat sodir etishining oldini olish mexanizmlarini takomillashtirish;
- probatsiya nazoratidagi shaxslarning xatti-harakatlarini, ularga elektron braslet vositasini taqqan holda, real vaqt rejimida elektron kuzatish va monitoring qilish tartibini joriy qilish;
- "probatsiya faoliyati" ta'lim yo'nalishi va mutaxassisligi bo'yicha kadrlar tayyorlashni yo'lga qo'yish;
- hokimliklar huzuridagi ozodlikdan mahrum etish joylaridan ozod qilingan shaxslarni rehabilitatsiya qilish va ijtimoiy moslashtirish markazlari faoliyatini takomillashtirish vazifalari belgilangan.

Islohotlar zahirida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 07.11.2018-yildagi "Jinoyat-ijroiya qonunchiligini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori qabul qilinib, shu asosida Ichki ishlar vazirligi huzurida Probatsiya xizmati tashkil etilib, 01.01.2019-yildan e'tiboran o'z faoliyatini boshladi.

Probatsiya xizmati va tegishli uchining hududiy bo'linmalari tashkil etilishi natijasida ushbu tuzilmaning asosiy vazifalari sifatida quyidagilar belgilandi. Jumladan:

- ichki ishlar organlarining ozodlikdan mahrum etish bilan bog'liq bo'lmagan jazolarni ijro etish bo'yicha faoliyatini boshqa davlat organlari va tashkilotlari, shuningdek jamoat tuzilmalari bilan o'zaro hamkorlikda samarali tashkil etish;
- shartli hukm qilingan va jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilingan shaxslarning xulq-atvori ustidan ta'sirchan nazoratni amalga oshirish;
- nazorat ostidagilar, shuningdek jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan voyaga yetmaganlarning ijtimoiy moslashuvi va ishga joylashishiga, shu jumladan ularning kasbiy tayyorgarligi bo'yicha tadbirlarni tashkil etish orqali har tomonlama amaliy ko'maklashish;
- nazorat ostidagilarning qayta jinoyat sodir etish xavfini aniqlash va bunga yo'l qo'ymaslik bo'yicha profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirish, ularning shaxsini ijtimoiy-psixologik portretini tuzgan holda o'rganish;
- jazoni ijro etish muassasalari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, ularning ozodlikdan mahrum etish joylaridan ozod etilgan shaxslarni ijtimoiy moslashtirishda fuqarolik jamiyati institutlari bilan uzviy hamkorlikni ta'minlash qayd etildi.

Ushbu islohotlarning asosiy vazifasi tizimning asosiy bo'g'ini bo'lgan ozodlikdan mahrum qilish joylari faoliyatida qonun talablariga javob bera oladigan tartibot o'rnatish, bu turdagi muassasalarning xodimlari bilim va saviyasini oshirish, ular, shuningdek jamoat tashkilotlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, fuqarolar tomonidan mahkumlarga nisbatan axloqan tuzatish vositalarini yanada samarali qo'llash borasidagi tadbirlarni o'tkazish

orqali jamiyatning to'laqonli a'zosi bo'lish uchun tayyorlash barobarida penitensiar tizimdagi "turma aholisi" nufusining tobora kamayib borishiga erishish ekanligi qayd etildi.

Chunki, O'zbekiston milliy qonunchiligining jinoyat-ijroiya tizimi davlat boshqaruvi tuzilmasining bir qismi, ayni vaqtda jamiyatning bir bo'g'ini hisoblanib, uning faoliyatini takomillashtirishga, jinoyat-ijroiya qonunchiligi talablarini og'ishmay bajarilishiga xizmat qilishi kerak.

Albatta bunda probatsiya xizmati o'z vazifalarini bajarishi ustidan nazorat qilish haqida gap ketganida, milliy huquqiy asoslar sifatida dastlab O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini ta'kidlash lozim.

Asosiy qonunning 143-moddasida [7] O'zbekiston Respublikasi hududida qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni O'zbekiston Respublikasining Bosh prokurori va unga bo'ysunuvchi prokurorlar amalga oshirishi ko'rsatib o'tilgan.

O'zbekiston Respublikasi "Prokuratura to'g'risida"gi Qonunining 4-moddasida ushlab turilganlarni, qamoqqa olinganlarni saqlash joylarida, jinoiy jazolarni va jinoyat-huquqiy ta'sirning boshqa choralarini ijro etish chog'ida qonunlarga rioya etilishi ustidan nazorat qilish prokuratura organlarining asosiy faoliyat yo'nalishlaridan biri bo'lib hisoblanadi [8].

Jazoni ijro etuvchi muassasalar va organlar ma'muriyati shu jumladan, probatsiya xizmati tomonidan qonunlarga rioya etilishi ustidan prokurorlik nazorati O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va unga bo'ysunuvchi prokurorlar tomonidan "Prokuraturasi to'g'risida"gi qonun va O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya kodeksiga hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga qat'iy muvofiq holda amalga oshiriladi. Ushbu turdagi nazorat faoliyatini amalga oshirish uchun prokurorlar tegishli vakolatlar bilan ta'minlangan.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, prokuratura organlari zimmasiga yuklatilgan vazifalarni — jazoni ijro etuvchi, ushlab turilgan va qamoqda saqlanayotgan shaxslar saqlanadigan joylar ma'muriyatlari tomonidan qonunlarga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish, qonunbuzilishlarning oldini olish, ularni aniqlash va bartaraf etish — bajarish maqsadida prokuratura organlari keng vakolatlar bilan ta'minlangan. Ushbu vakolatlarni shartli ravishda faqat ushbu nazorat yo'nalishiga xos bo'lgan maxsus vakolatlar hamda prokuratura faoliyatining boshqa yo'nalishlariga ham xos bo'lgan umumiy vakolatlarga ajratish mumkin. Bunda prokuratura organlari nafaqat O'zbekiston Respublikasining "Prokuratura to'g'risida"gi qonunining 31-moddasida nazarda tutilgan maxsus vakolatlardan, balki mazkur nazorat yo'nalishining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda, prokuratura faoliyatining boshqa turlariga oid bo'lgan, jumladan qonunning 25 va 28-moddalarida nazarda tutilgan vakolatlardan ham foydalanadi.

Bundan tashqari, prokuratura organlarining mazkur sohasidagi faoliyatini bevosita O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining 28.12.2015-yildagi 128-son "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etishda hamda qamoqqa olinganlarni saqlashda qonunlarga rioya etilishi ustidan nazorat samaradorligini oshirish to'g'risida"gi buyrug'i ham tartibga solib, prokuratura organlari jinoyat-ijroiya qonun hujjatlarini qo'llayotgan muassasa va organlar hamda mansabdor shaxslar faoliyatida qonun hujjatlariga rioya etilishi;

- jinoiy jazolarni va jinoyat-huquqiy ta'sirning boshqa choralarini ijro etuvchi muassasalarda shaxslar saqlanishining qonuniyligi;

- jazo hamda boshqa ta'sir choralari qo'llanilgan shaxslarning qonunda belgilangan huquq va majburiyatlariga rioya etilishi ustidan nazoratni tashkil qilishligiga alohida e'tibor qaratishlari lozim.

Mazkur vazifalarni bajarish maqsadida prokuratura organlari tizimida Sud hujjatlari va boshqa organ hujjatlarini ijro etishda qonunchilik ijrosi ustidan nazorat boshqarmasi, viloyat prokuraturalari va ularga tenglashtirilgan prokuraturalarda tegishli bo'limlar hamda jazolarni ijro etish muassasalarida prokuror vakolatini amalga oshiruvchi tuman prokuraturalariga tenglashtirilgan ixtisoslashtirilgan prokuraturalari faoliyat yuritadi.

Shuni xulosa sifatida ta'kidlash lozimki, yuqoridagi xalqaro standartlar prokuratura organlari tomonidan jazoni ijro etuvchi muassasalar va organlar faoliyati ustidan nazorat – mahkumlarning huquq va erkinliklarini himoya qilish hamda jazoni ijro etish jarayonida qonuniylikni mustahkamlashdagi eng muhim vositadir. Xalqaro standartlar ham ushbu masalaning dolzarbligini alohida ta'kidlaydi. Bevosita BMTning Nelson Mandela qoidalariga muvofiq qamoqxonalarda muntazam ichki va tashqi tekshiruv tizimi joriy etilib, mustaqil organlar orqali nazorat amalga oshirilishini ko'rsatadi. Bu chora jazoni ijro etish muassasalari faoliyatida qonunlar va qoidalar to'liq bajarilishini ta'minlash, mahkumlarning huquqlarini himoya qilish maqsadiga qaratilgan. Yevropa penitensiar qoidalarida ham barcha qamoq muassasalari muntazam tekshiruv va mustaqil monitoring ostida bo'lishi belgilangan bo'lib, bunday nazorat tizimi jazoni ijro etishda qonuniylik va insonparvarlik prinsiplari buzilmasligini kafolatlaydi.

Shu bilan birga, jahon hamjamiyati jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan ozodlikdan mahrum qilishga muqobil jazo choralari qo'llash zarurligini e'tirof etadi. Tokio qoidalarini mohiyatan qamoq jazosini iloji boricha qisqartirish, uning o'rniga huquqbuzarni tuzatishga xizmat qiladigan probatsiya kabi samarali muqobil institutlarni rivojlantirish zarurligini ta'kidlaydi. Shuningdek, har bir mahkumga individual yondashish, jazo choralari jinoyat og'irligiga mutanosib tayinlash va probatsiya jarayonini oshkora hamda nazorat qilinadigan tarzda tashkil etishni ko'rsatadi.

BMTning Bangkok qoidalarini ayol mahkumlar va probatsiya nazoratidagi ayollarga nisbatan muomalada ularning maxsus ehtiyojlarini inobatga olishni talab etadi. Bangkok qoidalariga binoan, ozodlikdan mahrum etilgan yoki probatsiya nazoratidagi ayollar o'z ehtiyojlariga mos individual rehabilitatsiya dasturlari, tegishli tibbiy hamda psixologik yordam va oila/bolalarni qo'llab-quvvatlash bilan ta'minlanishi lozim, chunki ko'plab ayol mahkumlar ilgari jismoniy yoki ruhiy zo'ravonlikka duch kelgan bo'ladi.

Xalqaro hujjatlarning ayni tavsiyalari hozirda O'zbekiston jinoyat-ijro siyosatini isloh etishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Milliy qonunchilik Tokio qoidalarida nazarda tutilgan ko'plab muqobil jazo turlarini (shartli hukm, jamoat ishlari, jarima, ozodlikni cheklash, probatsiya va boshqalar) joriy etgan holda, qamoq jazosini kamaytirish borasida xalqaro talablarga mos tarzda harakat qilmoqda. Shu bilan birga, xalqaro standartlarga to'liq muvofiqlikni ta'minlash uchun ayrim yo'nalishlarda qonunchilikni yanada takomillashtirish zarur: xususan, *kunlik jarima tizimini va jazolarning kombinatsiyalashgan shakllarini joriy etish* Tokio qoidalarida tavsiya etilgan choralarni to'liq amalga oshirish imkonini beradi.

Bangkok qoidalarini nuqtai nazaridan esa, ayol probatsiya nazoratidagilar bilan ishlashda genderga mos rehabilitatsiya dasturlarini ishlab chiqish, psixologik va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kuchaytirish lozim.

Yevropa penitensiar qoidalariga muvofiq esa probatsiya institutining tarbiyaviy va ijtimoiy funksiyalarini yanada kuchaytirish, probatsiya xizmati kadrlarining kasbiy salohiyatini oshirish hamda jazoni ijro etish jarayonida inson huquqlarini ta'minlash kafolatlarini mustahkamlash ustuvor vazifalardandir.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston jazoni ijro etish tizimini bosqichma-bosqich liberallashtirib, yuqoridagi xalqaro hujjatlarda bayon etilgan tamoyil va tavsiyalarni amaliyotga izchil joriy etmoqda – bu esa mahkumlarni tuzalish va ijtimoiy rehabilitatsiya qilish, takroriy jinoyat sodir etishning oldini olish hamda eng muhimi inson huquqlarini samarali himoya qilishga xizmat qilmoqda.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Davydova, I. A., Korobova, I. N. & Gumbatov, M. G. 2017, Comparative analysis of the legal regulation of control over institutions and bodies executing punishments in Russia and the Republic of Azerbaijan: study guide, Alternative-R, Ryazan.
2. https://www.unodc.org/documents/justice-and-prison-reform/14-07304_ebook.pdf
3. <https://cdn.penalreform.org/wp-content/uploads/2013/07/Final-PRI-Short-Guide-Bangkok-Rules-Russian.pdf>
4. «Прокурорский надзор в сфере probation»: Учебно-практ. пособие / Б.Т. Абдымомунова, К.Т. Масалбекова, М.Ш. Ногоева. - Б.: 2025. - 112 с.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020-yil 29-dekabrdagi Oliy Majlisga yo'llagan murojaatnomasi // https://president.uz/uz/site/documents?menu_id=144&page=36&per-page=15
6. <https://lex.uz/uz/docs/-5260791>
7. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 01.05.2023-y // <https://lex.uz/docs/6445145#6446165>
8. O'zbekiston Respublikasining "Prokuratura to'g'risida" Qonuni. 29.08.2001-y // <https://lex.uz/docs/106197>

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 2 (6) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).